

Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2024-yil 22-oktabr, seshanba, 122 (23.999)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari sayloviga

4 KUN

qoldi

AZIZ VATANDOSHLAR! SAYLASH HUQUQINGIZDAN FOYDALANING!

O‘ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

Qadrli vatandoshlar!

Sizlarni, sizlar orqali butun xalqimizni, ona tilimizning barcha ixlosmandlarini bugungi ulug‘ ayyom – O‘zbek tili bayrami hamda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 35 yilligi bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Ma’lumki, milliy til har bir madaniy xalqning tarixi va o‘zligini, ruhiy-ma’naviy dunyosini o‘zida aks ettiradigan tengsiz boylikdir. Qadimiy tariximizning eng og‘ir va sinovli davrlarida ham bizni yagona xalq sifatida birlashtirib, azaliy qadriyatlarimizni asrlar osha bezavol saqlab kelayotgan ona tilimizni har qancha ardoqlasak, ulug‘lasak arziydi.

Bugungi kunda yurtimizda davlat tilini rivojlantirish, uning nufuzi va mavqeini oshirish, xalqaro miqyosda keng targ‘ib etishga qaratilgan katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, keyingi yillarda ko‘plab idoraviy hujjatlar davlat tiliga o‘tkazildi, 100 mingdan ortiq geografik obyektning nomi davlat reyestriga kiritildi, hududlardagi 150 mingdan ziyod tashqi yozuvlar davlat tili va reklama to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqlashtirildi.

Yangi paydo bo‘layotgan zamonaviy tushunchalarga nom berish, so‘z va atamalarni rasmiy iste’molga kiritishni tizimli yo‘lga qo‘yish uchun Atamalar komissiyasining faoliyati tubdan takomillashtirildi, bu borada aniq ilmiy mezonlar ishlab chiqildi.

O‘tgan yildan e’tiboran me’yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish tizimi yaratilgani tegishli hujjatlarning davlat tili talablariga mos va uslubiy jihatdan puxta tayyorlanishiga xizmat qilmoqda.

Rahbarlik lavozimlariga nomzodlarning o‘zbek tili bo‘yicha bilim darajasini aniqlash maqsadida milliy test tizimi joriy etilib, qisqa vaqt ichida 3 mingdan ziyod talabgorning qariyb 1 ming 500 nafariga davlat tilini bilish bo‘yicha sertifikatlar berildi.

Davlat tili asoslarini chuqur va atroflicha o‘rganishni ta’minlash uchun Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan 58 nomdagi qomus, lug‘at va qo‘llanmalar ko‘p ming nusxalarda chop etildi.

Ayniqsa, keyingi yillarda o‘zbek tilini raqamlashtirish borasida jiddiy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekcha matnlarni sun’iy intellekt yordamida qayta ishlash va o‘zbek tilida muloqot qilishga mo‘ljallangan “aqlli” dastur ishlab chiqilib, “O‘zbek tili izohli lug‘ati”ning veb-sayti yaratildi.

Ayni paytda o‘zbek tilidagi matnlarni tahrir qilish, ularni lotin va kirill yozuviga o‘girish va so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini ko‘rsatishga mo‘ljallangan elektron dasturlar ham amaliyotda faol qo‘llanmoqda.

2025-yil 1-yanvardan boshlab umumta’lim maktablarida milliy sertifikatga ega bo‘lgan o‘zbek tili o‘qituvchilariga maoshining 50 foizi miqdorida oylik ustama haq to‘lanishi ona tilimiz fidoyilarining sharafli mehnatini rag‘batlantirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Barchamizga ayonki, badiiy tarjima til taraqqiyotida ulkan ahamiyatga ega. Yaqinda mamlakatimizda badiiy tarjima sohasida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot ta’sis etilgani ham, ishonamizki, o‘zbek tili va adabiyotini yanada boyitish va dunyoga keng targ‘ib etishda muhim omil bo‘ladi.

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan vatanparvar o‘g‘il-qizlarimizning salohiyati yordamida “Vikipediya” xalqaro internet ensiklopediyasidagi o‘zbekcha ma’lumotlar hajmi keskin ko‘payib, davlat tilida e’lon qilinayotgan maqolalar hajmi bo‘yicha O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi mamlakatga aylangani e’tiborlidir.

O‘tgan davrda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazida turli tashkilot va idoralarda mehnat qilayotgan 33 mingdan ortiq xodim o‘qitildi. Shuningdek, o‘zbek tilini o‘rganish istagida bo‘lgan vatandoshlarimiz uchun ushbu markaz va uning hududiy bo‘limlarida bepul o‘quv kurslari yo‘lga qo‘yildi.

Shu o‘rinda bag‘rikeng diyorimizda ahil-inoq yashab kelayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillarining tili, an’ana va qadriyatlarini asrab-avaylash bo‘yicha ham muhim ishlar amalga oshirilayotganini alohida ta’kidlamoqchiman. Jumladan, respublikamiz maktablarida ta’lim-tarbiya jarayoni 7 ta tilda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, 160 ga yaqin milliy madaniy markaz hamda qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman tillaridagi ommaviy axborot vositalari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Markaziy teleradiokanallar orqali o‘zbek tilini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘rsatuv va eshittirishlarning muntazam berib borilayotgani yurtimizda yashayotgan boshqa millat vakillarining davlat tilini o‘zlashtirishiga katta hissa qo‘shmoqda.

Aziz do‘stlar!

O‘zbek tilining beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uning jahon miqyosida nufuzi va jozibadorligini oshirish uchun hali oldimizda ko‘plab vazifalar turibdi.

Avvalo, yuksak taraqqiy etgan demokratik davlatlarda bo‘lgani kabi davlat tili butun jamiyatni, tili va millatidan qat’i nazar, barcha fuqarolarni yagona xalq sifatida birlashtirishga xizmat qilishi zarur. Bu borada har qanday xalq uchun o‘ta hassos va ta’sirchan bo‘lgan til masalasida ortiqcha ehtiros va hissiyotlarga berilmasdan, uzoqni o‘ylab, vazminlik bilan ish tutish kerakligini hammamiz yaxshi anglaymiz.

Zero, davlat tili faqatgina soha mutaxassislarining emas, balki ko‘pmillatli butun xalqimizning birgalikdagi sa’y-harakatlari, aql-zakovati, ma’naviy-ma’rifiy salohiyati, vatanparvarlik fazilatlari bilan ravnaq topadi.

Mamlakatimizda qonunga hurmat va itoat muhitini ta’minlash, jumladan, “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunni hayotimizga izchil tatbiq qilishda barchamiz yuksak madaniyat va o‘zaro bir-birini anglash tuyg‘usini namoyon etishimiz lozim.

Bu borada barcha ta’lim muassasalarida o‘zbek tili va adabiyoti fanlarini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish orqali ta’lim sifatini oshirishga erishish muhim ahamiyatga ega.

Teleradiokanallar va internet saytlarida davlat tilini o‘rganishga yordam beradigan dasturlarning soni va efir vaqtlarini ko‘paytirish, mustaqil til o‘rganuvchilar uchun qo‘shimcha adabiyotlar, lug‘at va qo‘llanmalar nashr etish doimiy e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Raqamli makonda davlat tilini keng joriy etishga mo‘ljallangan ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, o‘zbek tilini axborot texnologiyalari sohasidagi yirik dasturlar tili qatoriga kiritish choralarini ko‘rish ham dolzarb vazifamiz bo‘lib qoladi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Sizlarni bugungi qutlug‘ bayram bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga mustahkam sog‘liq, ishlaringizda yangi yutuqlar, xonadonlaringizga tinchlik va farovonlik tilayman.

O‘zbek tilimizning boyligi, kuch-qudrati yanada ziyoda bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Har yili 21-oktabr kuni viloyatimizda O‘zbek tili bayrami Samarqand shahridagi markaziy istirohat bog‘ida, hazrat Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo‘yish bilan boshlanishi an’anaga aylangan.

Tilimiz rivoji e’tiborga muhtoj!







O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 35 yil to‘lishi hamda O‘zbek tili bayrami munosabati bilan tashkil etilgan bu yilgi tadbirda viloyat hokimligi mas’ullari, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limi, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari, talaba-o‘quvchilar va keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Viloyat hokimi o‘rinbosari R.Qobilov, tilshunos olimlar, shoir va yozuvchilar tilimizning qadr-qimmati haqida gapirib, yig‘ilganlarni bayram bilan tabrikladi.

- Bugungi kunda tilimiz rivojlanishga, yordamga muhtoj, - deydi SamDU professori Suyun Karimov. – Bu borada uch yo‘nalishda ish olib borilyapti. Birinchisi, davlat ahamiyatida, ikkinchisi ilmiy, uchinchisi esa ommaviy munosabat. Jumladan, Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etilishi ham alohida ahamiyatga ega. Bir qancha izohli lug‘atlar ustida ish olib borilyapti. Xususan, Samarqand viloyatida joy nomlari tarixi, toponimik izohli lug‘at yaratilmoqda. Bugun tilning adabiylashishi uchun harakatlar olib borilmoqda. Bola maktabgacha ta’lim tashkilotidayoq sof o‘zbek adabiy tilida gaplashishini ta’minlashga e’tibor qaratilyapti.

Tadbirda Samarqand davlat universiteti va Samarqand davlat chet tillar instituti talabalari, turli millatga mansub yoshlar o‘zbek tilida she’rlar o‘qidi.

Shuningdek, istirohat bog‘ida kitoblar savdo yarmarkasi, havaskor ijodkorlar, hunarmandlar tomonidan tayyorlangan tasviriy va amaliy san’at namunalari ko‘rgazmasi tashkil etildi.

O‘zbek tili bayramiga bag‘ishlangan tadbirlar kun davomida ta’lim muassasalarida, korxona va tashkilotlarda davom etdi.

To‘lqin SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (foto).

Saylov – 2024

Sog‘lom kelajak tashabbusi

Samarqand shahrida O‘zbekiston Ekologik partiyasi tomonidan saylovoldi ommaviy tadbiri o‘tkazildi.

Unda O‘zbekiston Ekologik partiyasi rahbariyati, hududiy partiya tashkilotlari, oliy o‘quv yurtlari, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi tashkilotlar vakillari, ekofaollar, volontyorlar ishtirok etdi.

Partiya Markaziy kengashi ijroiya qo‘mitasi raisi Abdushukur Hamzayev va boshqalar partiya Saylovoldi dasturida ilgari surilgan vazifalar hamda ularning ahamiyati haqida ma’lumot berdi. Ta’kidlanganidek, partiya shahar hududida istiqomat qiluvchilarning ekologik huquqlarini ta’minlash, toza va musaffo muhitda hayot kechirishi uchun sharoit yaratish masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Ayni maqsadda dasturga shaharlarda bino va ko‘p kvartirali uylar qurilishini majburiy tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish mexanizmini qonunda belgilash, 2030-yilga qadar yirik shaharlarda yo‘lovchilarning velosipedda harakatlanish ulushini 20 foizga yetkazish maqsadlari kiritilgan.

- Maqsadimiz sog‘lom kelajakni qurish, - deydi partiyadan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod Anvar Shamsiyev. - Rejalarimiz katta. Xususan, yashil iqtisodiyot sohasidagi xalqaro tajribalarni yurtimizda tatbiq qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar o‘z samaralarini bera boshladi. Safdoshlarimiz ko‘paysa, natijalar ham shunga yarasha bo‘ladi.

“Tabiat uchun birlashaylik!” shiori ostida o‘tgan targ‘ibot tadbiri madaniy dasturga ulanib ketdi.

Partiya viloyat kengashi axborot xizmati.

Ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlaymiz

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatligiga nomzod Farmon Toshev Paxtachi tumani Nurafshon, Istiqbol, Saroy mahallalarida saylovchilar bilan uchrashdi.

Muloqotlarda partiyaning saylovoldi dasturi, xususan, nogironligi bo‘lgan shaxslar, kam ta’minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha maqsadlar haqida so‘z yuritildi.

- Saylovoldi dasturimizda ijtimoiy adolat va tenglik, ijtimoiy birdamlik, ijtimoiy demokratiya mezonlariga mos keladigan ijtimoiy demokratik davlat barpo etishga alohida e’tibor qaratilgan, - dedi F.Toshev. – 2030-yilgacha mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash orqali xalqimizning turmush darajasi va sifatini dunyoning o‘rta rivojlangan davlatlari darajasiga olib chiqishni ustuvor vazifa sifatida belgilaganmiz. Bu vazifalarni amalga oshirishda davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamining manfaatlaridan kelib chiqish zarur.

Bunda avvalo, pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori turmush kechirish uchun yetarli bo‘lmagan pensionerlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, nogiron bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalar, ko‘p bolali ayollar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, yolg‘iz keksalar va aholining boshqa zaif qatlamlari qo‘llab-quvvatlanishi kerak. Mehnat bilan band bo‘lmagan mehnatga layoqatli aholi, ishga joylashishda qiyinchilikka duch kelayotgan insonlar, jumladan, mehnat bozoriga endi kirib kelgan ta’lim muassasalari bitiruvchilari ham bunday ko‘makdan bebahra qolmasligi lozim.

XDP viloyat kengashi axborot xizmati.

Xalqning odil sudlovga ishonchi oshsin

“Adolat” SDP Kattaqo‘rg‘on tumani kengashi tomonidan tumandagi Qo‘shhovuz mahallasida saylovchilar bilan uchrashuv o‘tkazildi.

Uchrashuvda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod Shuhrat Yuldashov, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatligiga nomzod Shoxista Eshniyozova va tuman Kengashiga nomzod Ibrohim Achilovni qo‘llab-quvvatlashga chaqirildi.

Nomzodlar saylovoldi dasturlaridan o‘rin olgan maqsad va vazifalari haqida so‘z yuritdi.

- Partiyaning bosh maqsadi Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligi ta’minlangan, inson huquqlari va erkinliklari himoyalangan huquqiy davlat qurishdan iborat, - dedi partiya tuman kengashi raisi N.Ibragimov. - Adolatli va mustaqil sud tizimini yaratish orqali fuqarolarning odil sudlovga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanadi. Partiyamiz saylovoldi dasturida soliqlar va boshqa qayta taqsimlash vositalari orqali aholi daromadlarini tenglashtirish siyosatini yuritish, «ko‘p daromad topgan ko‘p soliq to‘laydi» tamoyiliga ko‘ra, adolatli va samarali soliq va budjet siyosatini amalga oshirish maqsadida soliqqa tortishning progressiv stavkalarini hayotga joriy etish va shu orqali daromadlar tengsizligini kamaytirishga erishishni maqsad qilgan.


Nomzodlar tadbirkorlarga majburiyat yuklaydigan barcha qoidalarni qonunlar orqali joriy qilish, bojxona imtiyozlarini takomillashtirish, imtiyozlarni shaxslarga emas, aniq sohalarga berilishini ta’minlashga oid takliflarini bayon etdi.

O‘z navbatida saylovchilar ham sifatsiz mahsulot ishlab chiqarish, narx-navoni sun’iy ko‘tarishga qaratilgan xatti-harakatlarni nazorat qiluvchi idoralar mas’uliyatini oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish lozimligi haqidagi mulohazalarini bildirdilar.

“Adolat” SDP viloyat kengashi axborot xizmati.

BANDLIKNI TA’MINLASHDA E’TIBORSIZ YO‘NALISH BO‘LMAYDI

Kattaqo‘rg‘on tumanidagi 69 mahallada qariyb 300 ming aholi istiqomat qiladi. 112,5 ming iqtisodiy faol aholining 105 mingdan ortig‘i doimiy ish o‘rniga ega. Ammo ularning 31,5 ming nafari rasmiy band bo‘lsa, qolgan 52,8 ming nafari norasmiy ishlarda mehnat qiladi. Yana 7,5 ming aholi ishsiz hisoblanib, tumanda ishsizlik darajasi 7 foizni tashkil etadi. Ayniqsa, Bunyodkor, Nayman, Jizmonsoy, Omonkalxat mahallalarida ishsizlik darajasi tuman ko‘rsatkichidan yuqoriligicha qolmoqda.



ISHSIZLIKNI QISQARTIRISH ASOSIY VAZIFAMIZ

- Ishsizlikni kamaytirish borasida bir qator rejalar ishlab chiqqanmiz, - deydi tuman hokimi Jamshid Nasriddinov. – Buning uchun avvalo, tumanning drayver sohalarini rivojlantirish va ixtisoslashtirishni tashkil etdik. Tumanimizda oziq-ovqat, elektronika, qurilish materiallari ishlab chiqarish, tikuv-trikotaj, umumiy ovqatlanish, issiqxonachilik, parrandachilik, savdo, mebelsozlik, chorvachilik, asalarichilik, uzumchilik, baliqchilik, qulupnaychilik, malinachilik sohalari yetakchi o‘rinni egallaydi. Shuningdek, tibbiy va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, polimer plastmassa ishlab chiqarish va boshqa xizmatlar ko‘rsatish sohalari ixtisosligini rivojlantirish uchun iqtisodiyot sektori mas’ullarini biriktirdik. Ular tadbirkorlarga doimiy asosda ko‘mak ko‘rsatishadi, bandlikni ta’minlashga, ish o‘rinlari yaratishga harakat qilishadi. Buning natijasida 2023-yil boshida tumanda ishsizlik darajasi 11 foizni tashkil etgan bo‘lsa, joriy yil birinchi yarmida 6,8 foiz, yil yakunigacha 5,7 foizga tushiriladi. Prezidentimizning 2022-yil 21-sentabrdagi “Xotin-qizlar bandligini oshirish va salomatligini mustahkamlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida tumanimizda yirik investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga ayollar bandligi ta’minlanmoqda. Jumladan, 2023-yilda Kattaming mahallasidagi “Mobitex textile factories” MChJ tomonidan tikuvchilik korxonasi tashkil etilib, 350 ta doimiy ish o‘rni yaratildi. Yana 7 ta kasanachilik loyihasida ijtimoiy reestrda turgan 155 nafar xotin-qiz bugungi kunda daromadli doimiy ish bilan ta’minlandi. Ijtimoiy daftarda turgan xotin-qizlar bandligini ta’minlash maqsadida 23 ta tadbirkorlik subyektini jalb qilgan holda ishlab chiqarish kooperatsiyalari tashkil etildi. Tikuvchilik va qandolatchilik sohalarida ham 200 dan ortiq xotin-qizlar bandligi ta’minlandi.

Bundan tashqari, chorvachilik tumanning asosiy drayveri hisoblanadi. Yana qulupnay, malinachilik, parrandachilik ham yetakchi tarmoqqa aylanib bormoqda. Tomorqachilikni rivojlantirish, dehqon xo‘jaliklari tashkil etish orqali aholi bandligini ta’minlab, daromadini oshirish choralari ko‘rilmoqda. Masalan, o‘tgan yili dehqon xo‘jaliklarida loviya ekishni tavsiya qildik. Buni yetishtirish va foydalanish bo‘yicha vodiylik dehqonlar tajribasini o‘rgandik. Hali hosilni to‘liq terib olmasimizdan mahsulotni buxorolik tadbirkorlar xarid qilishdi. Qulupnaychilik tumanning yana bir drayver sohasiga aylanib ulgurdi. Bu ekindan yiliga 4 martadan ortiq hosil olinadi. Bizga esa yerdan daromad olishni gektariga besh ming dollarga yetkazish vazifasi qo‘yilgan. Qulupnayning bir sotixidan mavsumda ikki million so‘m, gektaridan 200 million so‘m daromad olinadi. Bu o‘rtacha 16 ming dollar degani. Yana piyoz, no‘xat yetishtirish ham yaxshi samara beradi. Faqat mavsumiy ishchilarni legallashtirish biroz murakkabligicha qolmoqda. Misol uchun, joriy yilda tumanimizda 9 ming gektar maydon g‘alladan bo‘shadi va shundan 6 ming gektarga mosh ekildi. Ushbu ekinni yig‘ishtirish uchun gektariga o‘rtacha 600 ming so‘mdan haq to‘lanadi. Bu shuncha maydon uchun 3 milliard 600 million so‘m bo‘ladi. Paxta terimi uchun bundan ancha katta mablag‘ sarflanadi, ammo bularni legallashtirish muammoligicha qolmoqda.

MAHALLALARNING IXTISOSLASHUVI SAMARA BERYAPTI

Tumanda 3 ta yirik parrandachilik xo‘jaligi bor va ularda ishlagan ishchilardan ikki mingdan ortig‘i xonadonida ming boshgacha parranda boqishni yo‘lga qo‘ygan. Umuman, tumandagi 69 mahallaning barchasida broyler zotli parranda boqiladi. Soha mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko‘ra, har bir xonadonda kamida 300 bosh parranda boqish mumkin va bu parrandadan oyiga 9 million daromad, 3 million so‘m sof foyda olish mumkin. Birgina Melixo‘ja mahallasidagi 76 xonadonning har birida mingdan ortiq parranda boqiladi.

- 2022-yildan davlatimiz rahbarining tashabbusi va tegishli qarorlari bilan ishsiz aholiga yer ajratish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi, - deydi tuman hokimligi bosh mutaxassisi Rustam Rahmonov. - Tumanimizda hozirgacha 5,5 ming aholiga 2300 gektarga yaqin yer maydoni ijaraga berildi va kartoshka, sabzi, piyoz, ko‘kat, sarimsoqpiyoz, qulupnay, no‘xat kabi xaridorgir ekinlar ekildi. Misol uchun, 2022-yilda aholiga ajratilgan yer maydonlaridan 5,5 ming tonnaga yaqin mahsulot olingan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 9200 tonnadan ortdi. Bu aholi bandligini ta’minlash, daromadini oshirish bilan birga, qo‘shimcha mahsulot yetishtirish imkonini ham berdi. Shuningdek, o‘tgan yili 4226 gektar asosiy, 2380 gektar takroriy ekindan 57 ming tonna mahsulot olindi va 24 ming tonnasi eksport qilindi. Bu yil dehqon xo‘jaliklarida 2025-yil hosili uchun 5 ming gektar maydonda to‘qsonbosti ekinlar ekilmoqda va olinadigan 70,8 ming tonnadan ortiq hosilning xaridi bo‘yicha qayta ishlovchi korxonalar bilan shartnomalar tuzildi.

Tumandagi 60,5 ming aholi xonadonida 6,6 ming gektar tomorqa maydonining 5834 gektariga ertagi ekinlar ekilib, 113,8 ming tonnadan ortiq mahsulot yetishtirildi. Misol uchun, tumanimizning Qumoq mahallasidagi 4800 dan ortiq aholi qulupnay yetishtirish bilan shug‘ullanadi. Valijon, Qushtepa, Tavaron, Qirg‘iz mahallalari ham qulupnaychilikka ixtisoslashgan. Mundiyon, Qoqsoy, Burgansoy, Jizmonsoy, Sebison, Qo‘shqo‘ton, Andoqsoy mahallalarida uzumchilik yaxshi rivojlangan.

Aholi xonadonlarida issiqxona qurish orqali qulupnay yetishtirishni yanada rivojlantirish maqsadida 102 ta xonadonning 2 gektar tomorqa yer maydonida issiqxonalar tashkil etildi. Mahallaga biriktirilgan “Kattaqo‘rg‘on tomorqa xizmati” MChJ tomonidan tomorqachilarga urug‘, ko‘chat yetkazish hamda yetishtirilgan mahsulotni markazlashgan holda mahalliy bozor va boshqa viloyatlarga sotish bo‘yicha shartnomalar imzolandi. Tomorqadan samarali foydalanishga ko‘maklashish maqsadida yilning birinchi yarmida 10 ta sug‘orish qudug‘i foydalanishga topshirildi va 7 tasiga subsidiya ajratish uchun hujjatlar topshirilgan.

Aholi tomorqalaridan samarali foydalanishga ko‘maklashish uchun “O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” tomonidan 3 milliard 600 million so‘m imtiyozli kredit ajratish rejalashtirilgan va hozirgacha 400 million so‘m yo‘naltirildi. Ajratilgan mablag‘lar tomorqalarda parrandachilik, asalarichilik, issiqxona, artezian quduqlar va mineral o‘g‘it, ko‘chatlar olish uchun sarflandi.

80 FOIZ CHORVA MOLLARI NASLLIGA AYLANTIRILDI

Kattaqo‘rg‘on tumani respublikamiz va viloyatda go‘sht yetishtirish, chorva mollarini sun’iy urug‘lantirish bo‘yicha ham yetakchi tumanlardan hisoblanadi. Bu yo‘nalish chorva mollari zotini yaxshilash va importni qisqartirish imkonini beradi. Misol uchun, joriy yilda tumanda qoramollarni sun’iy urug‘lantirish orqali 14 ming bosh naslli buzoq olingan. Bu esa Yevropa davlatlaridan valyuta hisobiga keltiriladigan importni qisqartirish imkonini berdi.

- 2022-yilda tumanimizdan ikki nafar mutaxassis Moskva shahrida chorva naslini yaxshilash bo‘yicha malaka oshirdi, - deydi tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i G‘iyos Murodullayev. – So‘ngra Rossiyadan chorva mollarini tekshirish uchun 2 ta UTT apparati olib kelindi. Hozir tumanda 181 mingdan ortiq qoramol boqilayotgan bo‘lsa, ularning 10 mingdan ortig‘i 127 ta chorvachilik xo‘jaligida parvarishlanadi. Mutaxassislarimiz tomonidan kuniga 30-35 bosh chorva moli sun’iy urug‘lantirilmoqda. Buning natijasida keyingi yillarda tumandagi chorva mollarining 80 foizga yaqini naslli qoramolga aylantirildi. Joriy yilda “Tojinor momo” chorva fermer xo‘jaligi Estoniya davlatidan har biri 45 million so‘mdan 45 bosh buqa va “Agro Breding” chorva fermer xo‘jaligi Qirg‘iz respublikasidan har biri 29 million so‘mdan 68 bosh sog‘in sigir olib keldi. Bu albatta, tumanda chorvachilikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

TOMORQADAN 70 MILLION SO‘M DAROMAD

Tumanning Jonkel mahallasida yashovchi Ilhom Imomov tomorqadan daromad olishni yaxshi o‘zlashtirgan bog‘bonlardan. U Tavaron mahallasida hokim yordamchisi bo‘lib ishlash bilan birga turmush o‘rtog‘i Qunduz Boboqulova bilan 10 sotix tomorqasida uzumchilik va asalarichilikni yo‘lga qo‘ygan.

- Yangi uyga ko‘chib chiqqan paytlarimizda 100 tupdan ortiq “Kelinbarmoq”, “Rizamat ota” va “Husayni” kabi uzum ko‘chatlarini ekdik, - deydi I.Imomov. – O‘tgan yili 3 tonna uzum hosilining o‘zidan 45 million so‘m, yana 28 oila asalari boqishni yo‘lga qo‘yib, 300 kilogramm asal oldik va 30 million so‘m daromadga ega bo‘ldik. Bu yil ham uzum va asal hosilidan 60-70 million so‘m daromad olishni mo‘ljallab turibmiz. O‘zim Tavaron mahallasida hokim yordamchisi bo‘lib ishlayman, tomorqada esa dam olish kunlari mehnat qilaman. Agar o‘zim tomorqadan daromad topishni bilmasam, odamlarga qanday qilib buni targ‘ib qilaman. Axir quruq gap bilan biror natijaga erishib bo‘lmaydi. Orttirgan tajribamni ular bilan bo‘lishaman, bilmaganlarimni o‘rganaman. Shu yo‘sinda vazifamni ham uddalayman, tomorqada ham mehnat qilaman.

BANDLIKNI TA’MINLASH IMKONIYATI BOR

Tumanda yangi ish o‘rinlari yaratish, bandlikni ta’minlash imkoniyatlari bor, ammo amalda foydalanilmaydi. Nega? Buning o‘ziga yarasha sabablari bor.

- Tumanimizda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga qarashli 3 ta kasb-hunar maktabi mavjud va ularda yiliga 500-550 nafar yoshlar kasb-hunarga o‘qitiladi, - deydi tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i Elbek Rahimov. - Lekin ishga joylashish yoki o‘qigan kasbini egallab, hayotda o‘z o‘rnini topib ketish samaradorligi juda past. Misol uchun, 2023-yilda ushbu kasb-hunar maktablarini 521 nafar o‘quvchi tamomlab, ularning atigi 63 nafari yoki 12 foizi ish bilan ta’minlangan. Buning asosiy sababi kasb-hunar maktablari va ishlab chiqaruvchi, ish beruvchilar o‘rtasida integratsiya yo‘qligi, o‘quvchilarning darslar va amaliy mashg‘ulotlarga qiziqishi sust ekanligida. Xorijga ishga ketganlarning aksariyati kam ish haqiga ishlashi yoki kambag‘allikning asosiy sabablaridan biri kasb-hunarga ega emasligida. Ish beruvchilar va ish o‘rinlari ko‘p bo‘lsa-da, malakali kadrlar yetishmasligi, o‘rta-maxsus kasb bo‘yicha bilim yo‘qligida. Kasb-hunar maktablarida katta moddiy texnik baza bor, ammo o‘qish sifati va natija qoniqarli emasligida.

Bugungi kunda ishsiz aholini kasbga o‘qitish muhimligiga qaramasdan kasb-hunar maktablarida kasbga yaxshi o‘qitilmayotganligidan vaziyat shu holga kelib qolgan.

Buning yechimi sifatida ushbu kasb-hunar maktablarini Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tasarrufiga o‘tkazish va kasb-hunar monomarkazlariga aylantirish hamda zamonaviy kasb-hunar yo‘nalishlarini tashkil etib, o‘qitish zarur. Kasb-hunar maktablari Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tasarrufiga o‘tishi natijasida bunday maskanlarda o‘qishni tamomlagan ishsizlar bandligini ta’minlash to‘liq kafolatlanishiga erishiladi. Jumladan, vazirlik va uning quyi boshqarma va bo‘limlari bilan yirik ish beruvchi korxonalar o‘rtasida hamkorlik bor. Yana kasb egallagan aholi o‘z tadbirkorligini amalga oshirishi uchun hokim yordamchilari orqali barcha imkoniyatlar yaratilgan. Shuningdek, vazirlik qoshidagi Migratsiya agentligi bilan xorijiy davlatlarda yuqori ish haqi mavjud ish o‘rinlariga kafolat mavjud. Dehqon xo‘jaliklari egalarini zamonaviy agronomiya sohasiga o‘qitish orqali yer maydonlarida hosildorlikni oshirishga erishish mumkin. Qolaversa, bo‘sh ish o‘rinlari doimiy Bandlik vazirligi va uning quyi tashkilotlari hamda ish beruvchi korxonalar bilan integratsiyada bo‘ladi. Bu o‘zgarish kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni ta’minlashga yordam beradi.

O‘ktam XUDOYBERDIYEV,
“Zarafshon”ning maxsus muxbiri.

“Yangi O‘zbekiston” massividagi qurilishlar ortda qolmoqda(mi?)

Prezidentimizning 2021-yil 9-dekabrdagi farmoni asosida respublikamizning 30 ta hududida “Yangi O‘zbekiston” massivlari qurilmoqda.

Jumladan, Urgut tumanidagi "Yangi O‘zbekiston" massivida 2022-2026-yillarda 39,2 gektar maydonda, 58 ta ko‘p qavatli uy-joy qurish belgilangan.

- O‘tgan yil yakuni bilan ikkita besh qavatli va to‘qqiz qavatli, 57 xonadonga mo‘ljallangan o‘nta uy-joy foydalanishga topshirilgan, - deydi Urgut tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i Farruh Jamolov. – Joriy yilda o‘ndan ortiq qurilish korxonasi tomonidan 1037 xonadonli 17 ta ko‘p qavatli uy-joy qurilishini yakunlab, foydalanishga topshirish belgilangan. Oktabr oyining boshida 16 qavatli uy-joyda qurilish-montaj ishlari yakunlandi, yana 9 qavatli 10 uy foydalanishga topshirish arafasida turibdi. Keyingi ikki yilda yana 23 ta ko‘p qavatli uy qurish belgilangan. Lekin tender savdolarida g‘olib bo‘lib, qurilishni vaqtida boshlamagani, ishlar sust ketayotgan qurilish korxonalari bilan tuzilgan shartnomalar tuman hokimligi tashabbusi asosida bekor qilindi va qurilish ishlari boshqa quruvchilarga berildi. Joriy yilda qurilishni vaqtida boshlamagan yoki sustkashlikka yo‘l qo‘ygan to‘rtta qurilish korxonasi tufayli rejadagi ishlar biroz ortda qoldi.



Umuman, massivda qurilish jarayoni uch bo‘limga bo‘lingan. Bu yerda 2 ta maktab, 4 ta bolalar bog‘chasi, davlat va xususiy poliklinika bo‘ladi. Hozirda bittadan maktab va bog‘cha foydalanishga topshirilgan, qolgan uchta bog‘cha qurish uchun auksion o‘tkazilib, g‘oliblar aniqlangan. Maktab qurilishi keyingi yil dasturiga kiritiladi. Bundan tashqari, maishiy xizmat obyektlari, savdo markazi, hammom, ekobozor quriladi. Dastlab foydalanishga topshirilgan 18 ta uyda to‘liq kommunikatsiya tizimlari yaratilgan. Hozirda ikkinchi bo‘limda ham kommunikatsiya tarmoqlarini tortish, issiqlik tizimi bo‘yicha yangi qozonxona qurish ishlari dasturga kiritilib, tender e’lon qilingan. Massivda birinchi bosqichda foydalanishga topshirilgan uylar alohida isitish tizimiga ulangan bo‘lsa, bosh rejaga o‘zgartirish kiritilib, keyin qurilayotgan uylar uchun qozonxona orqali isitish tizimi joriy etiladi.



Mas’ulning ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgacha massivda 570 xonadonga mo‘ljallangan uylar tayyor va bu uylarda 300 oila istiqomat qilmoqda. Tabiiy gaz tarmog‘i tortish ishlari boshlangan, keyingi yilda alohida elektr energiya tarmog‘i tortiladi. Xonadonlarda yashovchi fuqarolar tabiiy gaz bosimi pastligini aytmaganda boshqa muammo yo‘qligini bildirishdi.

- Biz tumanning O‘ramas mahallasida ko‘p qavatli uy quryapmiz, lekin tuman hokimligi va qurilish mas’ullari massivdagi ortda qolayotgan qurilishni ishonib topshirishdi, - deydi “Urgcharm natural lexxer” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori Rahmat Muhammadiyev. – Hujjatga ko‘ra, bu obyekt 2024-yil iyun oyida foydalanishga topshirilishi belgilangan, ammo hanuzgacha qurilish ishlari boshlanmagan. Obyektni qabul qilib olgach, hujjat ishlari va yerto‘la qismi qurilishiga biroz ko‘p muddat ketdi. Hozir to‘qqiz qavatli uyning uchinchi qavatini ko‘taryapmiz. Yil yakunigacha binoni topshirish harakatidamiz.

Massivning qurilish ishlari tugallangan qismini obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, yo‘llarni asfalt-betonlashtirish ishlariga kirishiladi.

- Massivimizda qurilayotgan ko‘p qavatli uy-joylarda to‘liq energiya tejamkorligi bo‘yicha rejalar ishlab chiqilgan, - deydi F.Jamolov. – Binolarning tashqi qismi bazalt tolali qoplamalar qilindi, uylarni foydalanishga qabul qilishda umumiy tom qismining yarmiga teng qismiga quyosh panellari o‘rnatilmoqda. Bu o‘rtacha 20-25 kVtgacha elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, har bir ko‘p qavatli uyning tom qismiga bittadan quyosh kollektori o‘rnatilmoqda.

O‘.XUDOYBERDIYEV.

BU FAKT!

Statistika boshqarmasiga ko‘ra, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024-yil 1-oktabr holatiga 41 302 tani tashkil etdi, ulardan 35 413 tasi tadbirkorlik subyektlaridir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 37,2 foiz, sanoat – 13 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 6 foiz, qurilish – 5,5 foiz.

Hududlar kesimida eng ko‘p Samarqand shahrida – 28,4 foiz, Samarqand tumani – 8,3 foiz, Urgut – 7,9 foiz, Past Darg‘om – 7,2 foiz va Kattaqo‘rg‘on tumanida – 5 foiz korxona va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Samarqandda qozoq tili va adabiyoti bo‘limi ochildi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida Qozog‘iston Respublikasining O‘zbekistondagi elchixonasi ko‘magi bilan Abay nomidagi qozoq tili va adabiyoti bo‘limi ochildi. Tadbirda Qozog‘iston Respublikasining O‘zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Bebut Atamkulov, Abay nomidagi milliy pedagogika universiteti rektori Bolat Tilep qatnashdi.



- O‘zbekiston va Qozog‘iston oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik yanada mustahkamlanganini e’tirof etamiz, - dedi viloyat oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i Azizbek Nasimov. - Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi akademik aloqalarni mustahkamlash, tillarni o‘zlashtirish, til mutaxassislarining sifatini oshirishga intilyapmiz. Mamlakatimizning 400 ta maktabida qozoq tili o‘qitiladi, ta’lim faqat qozoq tilida olib boriladigan 162 ta maktab mavjud. Toshkent davlat pedagogika universiteti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi universiteti, Guliston davlat universiteti, Nukus, Jizzax va Navoiy davlat pedagogika institutlarida qozoq tili va adabiyoti fakulteti va kafedralari tashkil etilgan. Samarqand davlat universitetida ochilayotgan ushbu bo‘lim ham yoshlarimizga qozoq tilini o‘rgatishga xizmat qiladi.

Tadbirning ochilish marosimida so‘zga chiqqanlar o‘zbek, qozoq xalqlarining qadimiy tarixi, tili, dini, madaniyati, urf-odatlari bir butunligini e’tirof etishdi. Samarqand davlat universiteti rektori, professor Rustam Xolmurodov va Qozog‘iston delegatsiyasi vakillari ramziy lentani kesishdi.

Mehmonlar Abay nomidagi qozoq tili va adabiyoti bo‘limi faoliyati bilan tanishdi. Qozoq madaniyatini aks ettiruvchi o‘tov, turli adabiyotlar, talabalar uchun auditoriyani ko‘zdan kechirdi.

Xurshida ERNAZAROVA.



Xususiy mulk daxlsiz. Mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas.

Konstitutsiyamizda belgilangan ushbu tamoyil sudlar tomonidan kafolatlanmoqda. Yaqinda ko‘rib, tamomlangan bir ish bunga yorqin misol bo‘ladi.

Samarqand shahar adliya bo‘limi da’vogar – «Toxir-R» xususiy korxonasi manfaatini ko‘zlab da’vo arizasi bilan murojaat qilib, da’vogarga tegishli tuman markazidagi bino-inshootlari o‘rniga 908 million 462 ming so‘m kompensatsiyani javobgar – Past Darg‘om tumani hokimligidan undirib berishni so‘ragan.


Ish holatlariga ko‘ra, Past Darg‘om tumani hokimining 2001-yilgi qarori bilan Juma shahri, Amir Temur ko‘chasidan Tohir Raxmanov "Toxir-R" xususiy korxonasi rahbari)ga shaxsiy avtoulovlar to‘xtash joyi qurish uchun 2200 kvadrat metr yer maydoni ajratish to‘g‘risidagi tuman yer tanlash hay’atining dalolatnomasi tasdiqlangan.

Tuman hokimining 2002-yildagi qarori bilan yuqorida qayd qilingan manzildagi avtoulovlar to‘xtash joyi va muzqaymoq pavilonini foydalanishga topshirish to‘g‘risidagi davlat qabul hay’ati a’zolarining dalolatnomasi tasdiqlanib, avtoulovlar to‘xtash joyining umumiy maydoni 2200 kvadrat metr, muzqaymoq paviloni 193,6 kvadrat metr qilib ko‘rsatilgan.

Tuman hokimining 2004-yildagi qarori bilan esa «Toxir-R» xususiy korxonasiga qarashli avtoulovlarni to‘xtash joyi va muzqaymoq paviloni bino-inshootlari egallab turgan 1242,75 kvadrat metr yer maydoni doimiy foydalanishga biriktirib berilib, bino-inshootlarga mulk huquqi belgilangan.

Sud amaliyotidan

Mulkdorning huquqi sudda himoya qilindi



Yer uchastkasi va bino-inshootlarga bo‘lgan huquq viloyat bino-inshootlar va yer davlat kadastri bosh boshqarmasi tomonidan 2004-yil 25-aprelda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Ish hujjatlaridan aniqlanishicha, Past Darg‘om tumani hokimining 2004-yil 13-apreldagi avtoulovlarning to‘xtash joyi va muzqaymoq paviloni bino-inshootlari joylashgan yer jinoyat ishlari bo‘yicha tuman sudi binosi qurilishi uchun berilgani sababli buzib tashlangan. Lekin buzilgan bino-inshootlar uchun «Toxir-R» xususiy korxonasiga kompensatsiya to‘lanmagan.

Fuqarolik kodeksining 206-moddasi birinchi qismiga ko‘ra, davlat organining mulkdorning mol-mulkini olib qo‘yishga bevosita qaratilmagan qarori munosabati bilan shu jumladan, mulkdorga qarashli uy, boshqa imoratlar, inshootlar yoki ekinlar joylashgan yer uchastkasini olib qo‘yish to‘g‘risidagi qarori munosabati bilan mulk huquqining bekor qilinishiga qonunda belgilangan hollar va tartibdagina yo‘l qo‘yiladi. Bunda mulkdorga olib qo‘yilgan mol-mulkka teng qimmatli mol-mulk mulk huquqi asosida beriladi va uning ko‘rgan boshqa zararlari to‘lanadi yoki mulk huquqi bekor qilinishi bilan yetkazilgan zarar to‘la hajmda to‘lanadi.

Shuningdek, ushbu kodeks 206-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlarida, olib qo‘yilayotgan yer uchastkasidagi uylarning, boshqa imoratlarning, inshootlarning yoki ekinlarning, shuningdek, yer uchastkasiga bo‘lgan huquqning bozor qiymatini aniqlash belgilangan tartibda baholovchi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

«Samarqand viloyat ko‘chmas mulk va sarmoyalar agentligi» mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2023-yil 7-avgustdagi hisobotiga ko‘ra, «Toxir-R» xususiy korxonasiga tegishli bo‘lgan avtoulovlar to‘xtash joyi va muzqaymoq paviloni bino-inshootlari buzilishi munosabati bilan mulkdorga yetkazilgan zararning bozor qiymati 908 million 462 ming so‘mni tashkil qilgan.

Adliya vazirligi huzuridagi Xadicha Sulaymonova nomidagi respublika sud ekspertizasi markazi viloyat bo‘limining 2023-yil 22-dekabrdagi xulosasida ko‘chmas mulkni baholash hisoboti ilmiy asoslangani, Respublika yagona milliy baholash standartiga va me’yoriy hujjatlariga mos kelishi hamda to‘g‘ri baholangani ko‘rsatilgan.

Yuqoridagilarga asosan Past Darg‘om tumanlararo iqtisodiy sudining hal qiluv qarori bilan da’vogarning arizasi to‘liq qanoatlantirildi.

Luqmonboy ASATOV,
Past Darg‘om tumanlararo iqtisodiy sudi raisi.

Xazonni yoqish qanchalik zararli?

Atmosfera - yer kurrasini o‘rab turgan himoya qatlami. U tirik organizmlarni turli ultrabinafsha nurlar va zararlardan saqlaydi. Tirikligimiz, toza havo olishimiz ham shu qatlam tufayli. Atmosfera yer va boshqa fazoviy jismlarning gazsimon qobig‘i bo‘lib, yer yuzasida asosan azot (78,08 foiz), kislorod (20,95 foiz), argon (0,93 foiz), suv bug‘i (0,2-2,6 foiz), karbonat angidrid gazidan (0,03 foiz) iborat. Afsuski, yoz bo‘yi yashillik berib turgan shox-shabba, qurigan barglarni tozalikka erishish uchun kuz kelishi bilan to‘plab yoqishni boshlaymiz. Natijada barglarda to‘plangan zaharli gazlar yana atmosferaga chiqadi. Ko‘pincha xazon bilan birga plastik idishlar, polietilen xaltalar ham qo‘shib yoqiladi va natijada o‘ziga xos “zaharli kokteyl” paydo bo‘ladi.



Qurigan barglar yoqilganda hosil bo‘ladigan tutundan minglab odamlar nafas olib, sog‘lig‘ini xavf ostiga qo‘yadi. Birinchi navbatda insonning o‘pka tizimi zararlanadi. Zaharli moddalar qon orqali butun tanaga tarqab, buyrak, jigar, bosh miya va asab tizimiga katta zarar yetkazadi. Atmosfera har xil mexanik gazlarning aralashmasidan iborat bo‘lgani uchun bir tonna barg xazoni yoqilganda 30 kilogram uglevodorod oksidi atmosfera havosini zararlaydi. Bu sog‘lig‘imizga qanchalik katta zarar keltirayotganini afsuski, ko‘rmaymiz.

Mutaxassislar hisob-kitobiga ko‘ra, 1 tonna qurigan barg yonganda havoga 9 kilogramgacha tutun mikrobo‘laklari ajraladi. Uning tarkibida chang, azot oksidi, is gazi, og‘ir metallar hamda inson uchun eng xavfli moddalardan dioksin va dioksan bo‘ladi. Bu zaharli moddalar inson organizmiga tushgach, immun tizimini zararlaydi, gormon va vitaminlar faoliyatini izdan chiqaradi.

Shuningdek, qurigan maysa va barglarni yoqish natijasida tuproq qatlamining foydali mikroorganizmlari – yomg‘ir chuvalchanglari, mayda hasharotlar nobud bo‘ladi. Maysalarga o‘t qo‘yilsa, olov juda tez tarqalib, daraxtlar, o‘rmon va uylarni kulga aylantirishi mumkin.

Qonunchilikka ko‘ra, atmosferani muhofaza qilish talablarini buzgan, somon, xazon va shox-shabbalar, o‘simlik qoldiqlarini yoqib, atmosfera havosini zararli moddalar bilan ifloslantirgan fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch barobaridan besh barobarigacha, mansabdor shaxslarga besh barobaridan o‘n barobarigacha jarima solinadi.

Kuzda daraxtlardan to‘kiladigan barglar yerga ko‘mib qo‘yilsa, bahorda foydali o‘g‘itga aylanadi. Yig‘ilgan barglar qoplarga solinib, qish davomida kutilsa, ular chirib komposga aylanadi.

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

TANLOVDA QATNASHING!

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI QUYIDAGI KAFEDRALAR BO‘YICHA BO‘SH LAVOZIMLARGA TANLOV E’LON QILADI:

I. KOMPYUTER INJINIRING FAKULTETI BO‘YICHA:

1. Axborot texnologiyalari kafedrasiga:
- assistent – 1 o‘rin.

2. Kompyuter tizimlari kafedrasiga:
- assistent – 1 o‘rin.

3. Gumanitar va ijtimoiy fanlar kafedrasiga:
- dotsent – 1 o‘rin.

4. Dasturiy injiniring kafedrasiga:
- katta o‘qituvchi – 1 o‘rin;
- assistent – 1 o‘rin.

5. Tabiiy fanlar kafedrasiga:
- katta o‘qituvchi – 1 o‘rin;
- assistent – 1 o‘rin.

II. TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA KASB TA’LIMI FAKULTETI BO‘YICHA:

1. Raqamli va ta’lim texnologiyalari kafedrasiga:
- assistent – 1 o‘rin.

2. Telekommunikatsiya injiniringi kafedrasiga:
- assistent – 1 o‘rin.

3. Axborot xavfsizligi kafedrasiga:
- assistent – 1 o‘rin.

4. Tillar kafedrasiga:
- katta o‘qituvchi – 1 o‘rin.
- assistent – 1 o‘rin.

Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:
- filial direktori nomiga ariza;
- xodimlar hisobi bo‘yicha shaxsiy varaqa;
- oliy ma’lumot, ilmiy daraja haqidagi diplomlarning nusxalari;
- ilmiy unvoni haqidagi attestatning nusxasi;
- ilmiy va uslubiy ishlarning ro‘yxati.

Murojaat uchun manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko‘chasi, 2-uy.

DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o‘g‘li notarial idorasida marhum Raximova Musharafga (2010-yil 15-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Davronov Mahmud Hasan o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag‘rikenglik ko‘chasi, 4-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasida marhum Djurakulov Mizrobjon Djalilovichga (2021-yil 18-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko‘chasi, 121-uy, 21-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Isabekova Ruxsat Musayevnaga (2024-yil 21-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko‘chasi, 121-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Kaimova Farida Karimovnaga (2021-yil 20-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Farhod ko‘chasi, 34-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Saidov Ilhom Irgashevichga (2017-yil 25-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi, 200-uy, 3-xona.

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o‘g‘li notarial idorasida marhum Xalimov Jafarbek Ravshanovichga (2023-yil 20-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Davronov Mahmud Hasan o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag‘rikenglik ko‘chasi, 4-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Bokiyev Xamza Fattoyevichga (2023-yil 2-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 17-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Maxmudov Xudoyberdiga (2024-yil 10-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi, 12-uy.

* * *

TOPGANGA MUKOFOT!

Fuqaro Qaxxorov Murod Abdufattoevichning haydovchilik guvohnomasi (2002-yil Samarqand viloyati IIB YXXB 2-TRIB tomonidan berilgan) Samarqand tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so‘raymiz.

Telefon: +99891-316-13-70.

Mulohaza uchun mavzu

BOLAGA KITOB BERING!



Yoshi ulug‘lar davrasida o‘tirgandik. Ko‘p yillar chorvachilik sohasida ishlab, keksalik nafaqasiga chiqqan otaxon norozi ohangda gap ochdi: "Telefon chiqdi – balo chiqdi, ayni o‘qib-o‘rganadigan paytida nevaralarim undan bosh ko‘tarmay qoldi".

- To‘g‘ri aytasiz, birodar, - uning gapini ma’qulladi davradagilardan biri. – Biz kechqurun bo‘sh bo‘ldik deguncha qo‘shni xonaga o‘tib, dars tayyorlardik, uyga berilgan topshiriqlarni bajarardik. Hozirgi bolalar telefon titkilaydi.

Gap mavzusi uzoq davom etdi. Kimdir qo‘l telefonidan to‘g‘ri foydalanishning afzallik tomonlari borligini, telefonda internet orqali dunyodagi istalgan kitobni topish, mutolaa qilish, xorijiy tillarni va hozirgi kunda eng muhim sanalayotgan sohalardagi so‘nggi yangiliklarni o‘rganish mumkinligini aytgan bo‘lsa, boshqa birov ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilinayotgan sharm-hayosiz ma’lumotlar o‘smir-yoshlar axloqiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganidan tashvish bildirdi. Davradagilar aytgan fikr-mulohazalarga hech qanday e’tiroz yo‘q, chunki bu mavzu har birimizga kunday ravshan.

Endi hayotiy ikki voqeadan siz, aziz o‘quvchini voqif etsak.

- O‘sha kuni ishdan biroz kech qaytib, dasturxonga o‘tirgandim, - dedi tanishim Samandar. - Otam "narigi uydan bir xabar olgin, o‘g‘ling dars tayyorlayman, deb o‘tib ketgandi, nima qilayotgan ekan?" deb qoldi.

Samandar qo‘shni xonaga kirganini eshikka orqa o‘girib o‘tirgan o‘g‘li ko‘rmagan. U sekin borib o‘g‘lining tepasidan uning qo‘lidagi telefon ekraniga ko‘z tashlaydi. O‘n to‘rt yoshli o‘g‘li yarim yalang‘och odamlarning xatti-harakatini berilib tomosha qilayotganiga guvoh bo‘larkan, tili muzga aylanadi.

Ikkinchi voqeaga kaminaning o‘zi guvoh bo‘lgan. Kechki ovqatdan so‘ng ko‘chaga tungi sayrga chiqqandim. Ko‘chaning boshidagi uy oldida o‘n ikki-o‘n besh yoshlar chamasidagi uch-to‘rt bolakay tik turganlaricha birining qo‘lidagi telefonga tikilyapti. Ochig‘i, chidab turolmadim, o‘quvchilar uchun yozgi ta’til bo‘lgani bois ularga uylariga kirib badiiy kitob o‘qish kerakligini aytib, yengilgina tanbeh berdim. Bolalar uy-uylariga tarqab ketishdi.

Ularning ota-onalarini yaxshi taniyman. Qo‘l telefonidan farzandlari andishasiz ko‘rsatuvlarni ko‘rmasliklari uchun uylariga "Wi-Fi" o‘rnatmaganliklarini ham yaxshi bilaman. Ehtimol, ular ijtimoiy tarmoqdan sport bellashuvlarini ko‘rishayotgandir, har holda bunisi menga qorong‘i edi. Lekin men "Bir bolaga yetti mahalla otalik qiladi" degan qadimiy odatga amal qilib, ularni badiiy asarlar o‘qishga da’vat etganimdan hijolat chekmadim.

Bolalarni kitob o‘qishga, ilm olishga da’vat etish mavzusi bugunning gapi ham, yangilik ham emas. Lekin odamlar ongidagi "cho‘ponning bolasi cho‘pon, traktorchining bolasi traktorchi bo‘ladi" degan tushuncha butkul barham topdi. "O‘qigan o‘zadi" degan jaydari tushuncha benihoya haqiqat ekanligi amalda isbotlandi. Shunday ekan, bolaga maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab kitobga mehr uyg‘otmoq kerak. Bu mehr umrining oxiriga qadar uning hayotini bezaydi, hayotda munosib yashab o‘tishiga bebaho xazina bo‘ladi.

E’tibor qilganmisiz, nazarimizda bu dunyoda hech kim birovning jo‘yali taklifi yoki maslahatiga muhtoj emasga o‘xshab qoldi. Har kim o‘z bilganidan qolmaydiganga o‘xshaydi. Har holda atrofimizda o‘zbilarmonlar ko‘payib ketdi. Ehtimol, bolada kitobxonlikka havas uyg‘otish mavzusi ham bu toifadagi ayrim yurtdoshlarimizning ensasini qotirar. Lekin...

Ijtimoiy tarmoqlardan noto‘g‘ri foydalanishning, xususan, onlayn qimor o‘yinlariga berilib ketishning salbiy oqibatlarini ham unutmaslik kerak. Ma’lumot uchun, ushbu o‘yinlar, ayniqsa, onlayn qimor bilan bog‘liq jinoyatlar 2019-yilda 55 ta, 2020-yilda 86 ta, 2021-yilda 103 ta, 2022-yilning 6 oyida 90 tani tashkil etgan.

Inson qaysi kasb egasi bo‘lishidan qat’i nazar badiiy adabiyotlar bilan oshno bo‘lsa, hayotga boshqacha ko‘z bilan qaraydi. O‘zi va o‘zgalarga nisbatan talabchan, atrofdagilarga mehr-oqibatli bo‘ladi. Badiiy asar inson uchun boy ma’naviy va ruhiy oziq bo‘libgina qolmasdan, kishini rivojlantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, ezgu hamda xayrli amallarga rag‘bat uyg‘otadi, tashabbuskorlik, tashkilotchilik qobiliyatini kuchaytiradi. Shunday ekan, farzandning kelgusi taqdirini o‘ylasangiz, uning qo‘liga kitob bering, qalbida kitobxonlikka so‘nmas havas uyg‘otingki, uning cho‘g‘i kelgusida atrofga shu’la sochib tursin.

Fransiyalik faylasuf va yozuvchi Deni Didro "Odam o‘qishni to‘xtatsa, fikrlashdan to‘xtaydi" deganda ming karra haq bo‘lsa kerak. Nima dedingiz?

Abduhamid XUDOYBERDIYEV,
Narpay tumani.

Jamoat transporti qachon tartibga olinadi?

Bugungi kunda avtobus haydovchilari orasida yo‘lovchilar bilan qo‘pol muomalada bo‘ladigan, yo‘lda telefonda gaplashadigan, boshqa mashinalar bilan kimo‘zarga “poyga” uyushtiradiganlari uchrab turibdi. Ayrimlari esa bekat bo‘lmasa-da, yo‘lovchi olish maqsadida xohlagan joyga to‘xtaydiganlari ham bor.



Bir kuni M-2 yo‘nalishdagi avtobus haydovchisi Samarqand shahrining Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasida boshqa bir avtobus bilan “poyga” uyushtirdi. Haydovchi avtobusni o‘ng va chapga keskin burib, yo‘lovchilarning noroziligiga sabab bo‘ldi. Amir Temur ko‘chasiga kelgach, Davlat xizmatlari markazi binosi yaqinida yo‘l harakati qoidasini buzib, qarama-qarshi yo‘lakka o‘tib, qarshisidan kelayotgan mashinalar yo‘liga chiqqan holda boshqa avtomashinalarni quvib oldinga o‘tib oldi. Kamiga haydovchi telefonda gaplashib ketyapti. Yo‘lovchilarning tanbehiga e’tibor ham qilmadi. Noto‘g‘ri harakat qilayotganini ta’kidlasak, “Ishlaring bo‘lmasin, quloqchin orqali gaplashyapman, ko‘zim yo‘lda”, deydi. Axir u yo‘lda ketayotib, telefonda gaplashish mumkin emasligini, qolaversa, 35-40 nafar yo‘lovchi hayoti bilan o‘ynashib bo‘lmasligini nahotki anglab yetmayotgan bo‘lsa?

Bekatlarda ba’zi bir yo‘nalishlardagi avtobuslarni 25-30 daqiqa kutib qolsangiz, ayrimlarida avtobus 10-15 daqiqa turib qoladi. Ayrim haydovchilar esa bekatlarga to‘xtamay o‘tib ketadi.

Avtobus salonida sigaret va nos chekadigan haydovchilar borligi ham sir emas.

Yana bir kun M-2 yo‘nalishidagi avtobus Amir Temur ko‘chasida harakatlanib borayotib, keskin tormoz bergach, nafaqat tikka turganlar, balki o‘rindiqdagi yo‘lovchilar ham qalqib tushdi. Ayrimlar yiqildi ham. «Nima bo‘ldi?», deb haydovchidan so‘raganimizda u so‘kinib, «Yonimizda ketayotgan avtobus qisib yubordi», deya javob berdi. Har ikkala avtobus haydovchilari to‘xtab, bir-birini haqorat qila boshladi.

Jamoat transportida yuradiganlar bunday holatlarga ko‘p guvoh bo‘lgan. Haydovchining telefonda gaplashishi, konduktorlarning yo‘lovchilar bilan gap talashishi, ularni haqorat qilishi, hatto yoqasidan ushlab tortishlari oddiy holga aylanib boryapti.

Avtobuslarda har kuni mana shunday ko‘ngilsiz holatlar sodir bo‘layotganini viloyat transport boshqarmasi yoki avtosaroylar rahbarlari bilmaydimi? Qachon avtobus haydovchilari maxsus kiyimda yo‘nalishga chiqadi? Pul terish uchun konduktor bolalar xizmatidan foydalanish qachon bartaraf etiladi? Balki ular 91-yo‘nalishda qatnovchi avtobuslar allaqachon o‘z muddatini o‘tab, texnik jihatdan yaroqsiz ahvolga kelib qolganligi haqida ham bilishmas?!

Mo‘min QODIROV.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

22-OKTABR

Bo‘ri SALIMOV – (1935-2021) Navoiy viloyati Xatirchi tumanida tug‘ilgan. Veterinariya fanlari doktori, professor.


25-OKTABR

O‘ktama VAHOBOVA – (1928-2016) Marg‘ilon shahrida tug‘ilgan. Terapevt-kardiolog. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi.

26-OKTABR

Baxtiyor TO‘RAYEV – 1963-yilda Kattaqo‘rg‘on shahrida tug‘ilgan. Teatr rassomi. O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi.

Turmush chorrahalarida



Agar u rahna solmaganida Botiralining oilasi buzilib ketmasmidi? Nima bo‘lganda ham uchinchi odam aralashishidan Xudo asrasin ekan.

- Assalomu alaykum opajon, keling, xush ko‘rdik, salomatmisiz! - Saragul qo‘li ko‘ksida, nazokat bilan peshvoz chiqib Nisobonuni kutib oldi. U kelin bilan istamaygina ko‘rishib, hol-ahvol so‘rashgan bo‘ldi. Zimdan Saragulga razm soldi. Baxtiyorligidan gul-gul ochilib, bir gapirib, o‘n kuladi. Yelib-yugurib so‘riga ko‘rpacha tashladi.

- O‘ting opajon, xush kelibsiz!

“Qurg‘ur buncha chiroyli, ochiq ko‘ngil, qaqajon bo‘lmasa, ukamni yuragidan urgani bejiz emas ekanda... Qancha norozi bo‘lsam ham, shuni deb oyoq tirab oldi”.

Ukasi Botirali Saragulga uylanib, ota meros hovlida shiringina yashayotgani Nisobonuning hasadini qo‘zg‘adi. Lekin sir boy bermadi.

- Ko‘p yashang, baraka toping, jigarim Botirali bilan baxtli bo‘ling, - Nisobonu ko‘rpachaga chiqib joylashib o‘tirib olarkan, til uchida kelin-kuyovni duo qilgan bo‘ldi. Ukasining Saragul bilan ota-onasi chirog‘ini yoqib o‘tirganidan ichi kuydi. Begona ayolning ota meros hovliga bekalik qilib, o‘ziniki qilib olgani g‘ashini keltirdi. Nima qilsa ekan, Botiralini bu kelindan qanday sovutsa bo‘ladi?

...Nisobonu har gal ukasinikiga kelganida alamdan ichi kuyib qaytadi. Bir borganida Botiralining Saragulga mehr bilan tikilganini ko‘rib, hasaddan dod deb yuboray dedi. Kelin qozon-o‘choqqa unnash uchun chiqib ketganida ukasiga o‘qraydi.

- Namuncha yeb qo‘ygudek tikilmasang, xotinchagga, aqli-hushingdan ayiribdi, shekilli? Ahvolingga qara, poyiga patak bo‘lishga ham tayyorsan. Opam kelibdi deb, bundoq xursand bo‘lay demaysan. Rahmatli ota-onam hayotligida qanday fayzli edi bu xonadon. Qara, hamma yoq ivirsib yotibdi.

- Yo‘g‘ey, nega unday deysiz opajon? Kelganingizdan men ham, keliningiz ham xursandmiz. Hovli-joyni ko‘ring, qanday orasta, kelinigizning poyqadami qutlug‘ kelib, uyimizga xayr-baraka kirdi.

- Hm-m, - Nisobonuning afti burushdi. - Ko‘rib turibman, allaqachon seni jilovlab olibdi, yonini ol. Xuddi nikoh oqshomida davraga chiqqanday pardoz-andoz qilib olganiga o‘laymi! Tilyog‘lamalik qilib, opajon deb, girdikapalak bo‘lishini ko‘r. Sal tergab quysang bo‘ladi. Hozirdan burningga ip o‘tkazib olibdimi, keyin boshingga yong‘oq chaqadi. Mana meni aytdi, deysan.

- Opa, nima deyabsiz, kelinigiz yaxshi ayol, faqat men siz aytgan qizga uylanmaganim uchun uni yomon ko‘rayapsiz. Eshitsa, xafa bo‘ladi.

Opasining g‘iybat qilaverishi Botiralini hamiyatiga tegdi. Qattiq gapirishga majbur bo‘ldi.

- Opa! - dedi bir kelganida. - Yakkayu yagona jigarimsiz, sizni yaxshi ko‘raman, lekin haddingizdan oshmayabsizmi? Oilangizni, jiyanlarimni o‘ylasangiz-chi, nima qilasiz meni turmushimga aralashib? Xotinim bechora kelishingizdan bezib qoldi. Biror tanbeh bermasmikan deb, yurak hovuchlab o‘tiradi. Yaqinda nasib bo‘lsa, farzand ko‘ramiz, unga ham ta’sir qiladi axir bu g‘idi-bidingiz.

- E, shunaqami? - Nisobonu piching bilan boshini chayqadi. - Ishqilib bola o‘zingdanmi?

- Nima? - Botirali beixtiyor baqirib yubordi. Opasining og‘zidan chiqqan gapi uning ko‘ksiga xanjar qadagandek bo‘ldi.

- Bu nima deganingiz opa, chiqing, keting. Biz endi opa-uka emasmiz. - Botirali boshini changallab o‘tirib qoldi: “Nahotki, balki to‘g‘ridir”. Hozir u sog‘lom idrok qilishga qodir emasdi.

Tog‘aymurod SHOMURODOV.

Har bir yosh oilaning o‘kil ota-onasi bo‘lsaydi...

Mushtariy taklifi

Keyingi paytda yurtimizda oilaviy ajrimlar ko‘payib borayotganligi bot-bot tilga olinmoqda. Bu raqamlar oshayotganini yon-atrofimizdagi holatlardan ham bilish mumkin, albatta. Afsuski, ajrimlar bitta oilaning emas, borib-borib jamiyatning katta muammosiga aylanadi. Ayniqsa, ajralishga jiddiy sabab bo‘lmagan ro‘zg‘orlarning osongina bo‘linib ketishi juda achinarli.

Bugun shu kabi holatlarning oldini olish uchun FHDY bo‘limlari qoshida yosh oila quruvchilar maktabi va shu kabi o‘quvlar tashkil etilyapti. Lekin bular yetarli emas, nazarimda. Ularga tajribali mutaxassislar emas, namunali oila vakillarini ham chaqirish kerak. Ularning ham yoshlarga aytadigan so‘zlari bo‘ladi, albatta.

Ozarbayjonlarda kelin-kuyovga o‘kil ota, o‘kil ona tayinlanar ekan. O‘kil ota kuyovga, o‘kil ona qizga oiladagi barcha noziklikларni tushuntiradi, qaysidir ma’noda ularning oilaviy hayotiga mas’ul bo‘ladi. Yosh oilada muammo yuzaga kelsa, darhol o‘kil ota-ona yordamga keladi va masalani hal qiladi. Xuddi shunday holat Urgut, Bulung‘ur va Toyloq tumanlarida ham bor. Qaniydi, shu odat boshqa hududlarda ham ommalashsa.

Umuman, mahalla institutiga bugun juda ko‘p vazifalar yuklatilgan. Ilgari ularning asosiy ishi oiladagi ajralishlarning oldini olish edi. Bugun ushbu maskanda oilaviy ajralishlar bilan shug‘ullanish unchalik ham dolzarb bo‘lmagan bir masalaga aylanib qoldi. To‘g‘ri, shunday oilalar borki, ularning majburiy yashab ketishidan ko‘ra ajralishi yaxshiroq. Ammo har bir mahallada bu noziklikni tushunadigan kayvonilar, fidoyi keksalarimiz bor. Ularning tajribasidan foydalanish juda muhim.

Qahramon NAMOZOV,
Ishtixon tumani.

MATBUOT UYI
Zarafshon
Самаркандский вестник

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 662 nusxada chop etildi. Buyurtma 553. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E’LONLAR:** (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.
Navbatchi: X.ERNAZAROVA.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda